



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «23» июль

VI-51-125-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

Jinoyatlarning oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasi yuzasidan tuman ichki ishlар bo‘limi boshlig‘ining 2022 yil 2-chorak davomida amalga oshirilgan muayyan ishlarining hisoboti to‘g‘risida

Muhtaram Prezidentimiz boshchiligidagi mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida, ichki ishlар organlari xalqchil, mobil va ixcham tuzilmaga aylanmoqda. Xususan, mahallani xavfsiz va jinoyatdan holi hududga aylantirish maqsadida «Obod va xavfsiz hudud» tamoyili asosida huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati qayta ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 mart kunidagi «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlар organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son **Farmoniga** muvofiq jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatalayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda ichki ishlар organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish borasida bir qator topshiriqlash berilgan edi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlari, o‘tkazilayotgan tadbirlar va kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan mahallalarga qo‘sishimcha kuch vositalarni jalgan qilish natijasida umumiy jinoyatchilik 2021 yilning mos davriga 7 taga yoki 8,0 foizga kamayishiga ershildi.

Ushbu hisobotda raqamlarda tahlil etilgan ma'lumotlar solishtirilganda, jinoyatlarning ayrim turlarini sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmagan, ayrimlari oldi olinishi hisobiga kamayishiga erishilgan. Jumladan, qotillik, bosqinchilik, nomusga tegish, jinoyatni qasddan yashirish, qonunga xilof ravishda qurol saqlash talonchilik, mulkni qasddan nobud qilish kabi og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmagan. Mahallada sodir etilgan jinoyatlarning chuqur tahlili

orgali ularni 3 ta toifaga ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, «jinoyatlar oshgan» mahallalarda Milliy gvardiya bilan birgalikda qo‘shimcha patrullik yo‘nalishlari tashkil etildi.

Tumanda jinoyatchilikni oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasi yuzasidan 2022 yilning II-choragi davomida amalga oshirilgan muayyan ishlar to‘g‘risida tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining hisobotini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining jinoyatchilikni oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasi yuzasidan 2022 yilning II-choragi davomida amalga oshirilgan muayyan ishlar to‘g‘risida bergen hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘iga hududlarda huquqbazarliklarni tizimli tahlil qilib borish, natijalari bo‘yicha huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha tegishli yig‘ilishlarda tanqidiy muhokama qilib, qonunbuzilishlar yuzasidan qat’iy choralar ko‘rish;

- tuman hokimligi axborot xizmati va ommaviy axborot vositalari mas‘ullari bilan birgalikda jinoyatga qarshi kurashishga bag‘ishlangan maxsus ruknlarni tayyorlash orgali aholiga jinoyatlarning sabablari mohiyatini oolib berishga qaratilgan tadbirlar va turkum lavhalar tayyorlash ishlarini amalga oshirish;

- tumandagi voyaga yetmagan va 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbazarlik va jinoyatlarni chuqur tahlil qilib, ularning asl sabablarini o‘rganish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Yu.Xalimov)ga:

- har hafta payshanba kunlari profilaktika uchastka inspektorlari, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan hamkorlikda “Profilaktika kuni” tadbirlarini tashkil etish, mavjud muammolarni jamoatchilik asosida hal etish choralarini ko‘rsin;

- ichki ishlar organlarining jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbazarlikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga deputatlik va jamoatchilik asosida ko‘maklashish orgali samaradorlikka erishish tizimi yo‘lga qo‘yilsin.

- har bir deputat o‘z saylovchilari hududida jinoyat bilan bog‘liq har bir holatga "favqulodda holat" sifatida qarab, ayniqsa yoshlar o`rtasida o`g`irlik, mayda bezorilik, o‘z joniga qasd qilish holatlariga yo`l qo‘ymaslikka qaratilgan tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Ushbu qarorda belgilangan har bir topshiriqlarning bajarilish bo`yicha mas`ullar har chorak yakuni bo`yicha tuman Kengashi kotibiyatiga axborot kiritib borsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (Yu.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV